

KITOB DAN YAXSHI DO'ST YO'Q JAHONDA

Badiiy-ilmiy ijod singari mutolaa ma'naviy ehtiyoj bo'lib, alohida mas'uliyat, e'tiqod va shijoat, iroda va sabr-chidam so'raydi, muhimi, olam va odam mohiyatiga jiddiy yondoshmoq, so'z va fikr mag'ziga kirish orqali hayot manzaralarini keng tushunish hamda xayol kengliklari bo'ylab sayru sayohat qilish vositasidir. Boshqacha aytganda, anglab-tuyib va saralab o'qilgan badiiy jihatdan yetuk roman, qissa yoki hikoya syujeti va tasviriy uslubi qalb, ong-shuur va sezgilarga ayricha ta'sir o'tkazib, tafakkur zaxirasini samarali boyitadi, iste'dodni po'latdek toblaydi, fikrni charxlaydi, go'zallikka tashnalik tuyg'usini jonlantiradi va bu jarayon ibratli tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ana shu haqiqatni nazarda tutgan dunyoga mashhur Peru yozuvchisi va daramaturgi, Nobel mukofoti sohibi Xorxe Mario Pedro Vargas Losa so'z san'ati, kitob va mutolaaning estetik ahamiyatini quyidagicha yuqori baholagandi: *"Adabiyot tufayli, adabiyot uyg'otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot sultanatiga safar chog'i ko'ngilda bosh ko'targan kechinmalar, ular tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi va chinakam najot topdi. Adabiyot ahli o'ylab topgan badiiy to'qima qumga singigan suvdek izsiz ketmadni, bil'aks toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo'lмаганда insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig'lagan bo'lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko'ngil birligi yo'qolardi, mutelik kayfiyat keng tarqalib, taraqqiyotning etakchi omili sanalgan o'z-o'zini anglash tuyg'usi yo'qolardi".*

Perulik adib e'tiroflari mumtoz adabiyot mangu ijtimoiy ong sohasi sifatida mudomadolat va ezgulik tarafida xizmat qilishi, yovuzlik va jaholat bilan chiqisha olmasligini yaqqol ifodalaydi. Chindan ham mumtoz adabiyot hamisha inson bilan hamnafas: ezgulik daraxtini toabad himoya qiluvchi mustahkam qalqondir.

Lekin hozirgi murakkab globallashuv, ko'plab ijtimoiy muammolar qatorida, mutolaa sohasida noxush o'ylarga toldiradigan bir qancha achinarli holatlarni yuzaga chiqardi. Ko'pdan buyon oramizda kitob, xususan, haqiqiy ma'nodagi badiiy adabiyot ma'naviy hayotimizdan ma'lum darajada chekingani va hanuz chekinayotgani haqidagi bir-biridan sirpanchiq fikr va mulohazalar sharpadek kezib yuribdi. Endilikda chinakam so'z san'atiga daxldor, ko'hna dunyo va uning mohiyatini chuqur idrok qilishga undaydigan badiiy barkamol asarlar nazardan chetda qolayotganini ayrim mutaxasislar ham afsus bilan ta'kidlashmoqda.

Umuman, bu kuyinishlar bejiz emas va mutolaa muvozanati tobora keskinroq buzilayotgani kuzatiladi. Agar kengroq fikr yuritsak, butun dunyo ahli va bizni tashvishga solayotgan mazkur qaltis vaziyatga, birlamchi, loqaydlik va shaxsiyatparastlik, ikkilamchi, yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek urchigan yengil-yelpi ishqiy sarguzusht, oldi-qochdi detektiv va fantastik "asar"lar, estetik didni

maysani qiron aylagan qahraton sovuqday qiyratadigan maza-matradan butunlay mahrum video va badiiy kinofilmlar, uchlamchi, ma’naviy hayotimizga ustakorona yo‘sinda suqilib kirgan va zimdan mudhish ruhiy-ma’naviy vayronagarchilik bilan shug‘ullanayotgan ommaviy madaniyat, qolaversa, ham rom qiluvchi, ham behad chalg‘ituvchi imkoniyatga ega bo‘lgan internet zamin yaratgani va yaratayotgani yaqqol oydinlashadi.

Nazarimda eslatilgan salbiy omillar orasida eng xatarlisi va tobora tarmoq otayotgani, aniqrog‘i, hatto Fyodor Dostoevskiy kashf etgan “Dunyoni go‘zallik qutqaradi!” degan qonunsifat olamshumul estetik tushunchani ham uch pulga chaqishdan toymaydigan loqaydlik va shaxsiyatparastlik kasali bo‘lsa kerak. Har qanday ma’naviy-ruhiy boylik kushandas sanalgan mazkur lang mudom ilmu hikmat chirog‘ini o‘chirishga intilib, ma’rifat nuriga muhtoj qalblarga firib bergani va hanuz berayotgani sir emas.

Seziladiki, mutolla o‘sha kasallik tufayli hayotiy qiyinchiliklar qurboni bo‘lmasligi, aniqrog‘i, har qanday sharoitda ma’naviy ehtiyojga aylanmog‘i lozim. Ana shundagina jamiyatdagi turli toifalar o‘rtasida badiiy-ilmiy ijodga mehr ortadi, mutolla turmush tarzining ajralmas qismi ekani chuqurroq anglanadi, kitobxonlik madaniyati o‘sadi va shaksiz ommaviy tus oladi.

Ochig‘i, kitob va mutolaaga nisbatan ma’naviy ehtiyoj ko‘nikmasi har bir insonda juda erta, aniqrog‘i, bolalik va o‘smirlik faslidan boshlab shakllangan bo‘lishi kerak, ya’ni o‘qish va o‘rganish ishtiyoqi maktab va oila muhitida qalblarga puxta singdirilmog‘i lozim.

Ilohiy hodisa sanalgan badiiy-ilmiy ijod asosida tug‘iladigan kitob muqaddas ne’mat, mutolaa muqaddas mashg‘ulot ekanini yana bir bor alohida ta’kidlayman. Shunday ekan, aholi, xususan, yoshlarni garmonik tarbiyalash va kamolga yetkazish bobida mutolaa imkoniyatidan samarali foydalanish kerak. Menimcha navqiron avlodni o‘qishga bosqichma-bosqich o‘rgatish yaxshiroq samara beradi: maktab o‘quvchilariga daf‘atan “Telba” yoki “Jarayon” singari arxitektonik qurilishi jihatdan murakkab badiiy polotnolar emas, “Kapitan Grant bolalari”, “Daniel Defo”, “Sehrli qalpoqcha” kabi oson o‘qiladigan va tushuniladigan sarguzasht tipidagi asarlar tavsiya qilingani ma’quldir. Agar ular o‘rtasida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” “Rustamxon”, “Chambil qamali”, “Yozi bilan Zebo” va “Kuntug‘mish” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari keng targ‘ib qilinsa nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Kelgusida ezgulik vaadolat tarafida xayrli amallar qilib, jamiyatdan o‘z o‘rnini topishga orzuman bo‘lgan o‘g‘il va qizlar donishmand shoir Abdurahmon Jomiy bisotida bebaho gavhar sanalgan ushbu satrlarni quloqlariga sirg‘aday taqib olishlar lozim:

*Bilimdonlar so‘zi bordur bu bobda:
Bilimdon to‘rda-yu, ilmi kitobda!
Agar yolg‘iz esang, hamdam kitobdur,
Bilim subhidagi nur ham kitobdur!*

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda maxsus ishchi guruh Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz kutubxonalarida mutolaani rag‘batlantirish, kitobxonlik va kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kitob o‘qish holatini monitoring qilish bo‘yicha chora-tadbirlarga alohida urg‘u berilmoqda.

Kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida keng aholi qatlaminini kitob mutolaasiga jalb qilish va ularni kitob bilan ta’minlash bo‘yicha ommaviy tadbirlar, xayriya aktsiyalarini tashkil etish, ijtimoiy reklamalardan unumli foydalanish, o‘zbek hamda jahon adabiyotining, taniqli mualliflarning mumtoz va zamonaviy badiiy asarlarini targ‘ib qilish, ushbu sohada jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ko‘ngillilar (volontyorlik) harakatini rivojlantirish, kitobxonlik muammosining keng jamoatchilik muhokamasini, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda tashkil etish bo‘yicha aniq ishlar olib borilishi ko‘zda tutilmoqda.

**Toshkent moliya instituti,
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasи
katta o‘qituvchisi Nilufar Dilmurodova**